

Tashqi savdo aylanmasi


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport ko'rsatkichlari
- III. Import ko'rsatkichlari
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yil yanvar-fevral oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 11,6 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 767,4 mln AQSH dollariga yoki 7,1 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi
yanvar-fevral mln AQSH dollari



TSAda eksport hajmi 3 546,8 mln AQSH dollariga (2025-yilning mos davriga nisbatan 23,4 % ga kamaydi) va import hajmi 8 058,3 mln AQSH dollariga (29,8 % o'sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 4 511,5 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

2026-yil yanvar-fevral oylarida eksportning pasayishi maxsus eksport hajmlarining qisqarishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, maxsus eksportni hisobga olmaganda, tovarlar eksporti barqaror o'sishni namoyon etdi va 2 097,7 mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ga oshdi.

**O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
yanvar-fevral mln AQSH dollari

	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Xitoy	2 131,4	2 078,3	3 192,6
Rossiya Federatsiyasi	1 765,9	1 616,4	2 122,4
Qozog'iston	581,0	660,4	837,5
Turkiya	436,3	420,2	413,8
Koreya Respublikasi	368,9	260,0	313,1
Afg'oniston	131,2	275,9	298,4
Fransiya	193,4	180,6	261,0
Germaniya	174,7	218,6	208,1
Hindiston	135,7	195,1	196,9
BAA	95,1	162,4	196,6
Belarus	90,5	112,4	178,7
AQSH	115,7	143,0	158,9
Turkmaniston	143,5	123,5	149,5
Qirg'iz Respublikasi	96,2	99,0	136,4
Tojikiston	118,5	84,6	121,0
Eron	77,1	66,0	92,7
Irlandiya	21,9	8,9	83,6
Italiya	80,5	67,8	79,0
Gonkong*	15,9	17,7	73,5
Ukraina	35,2	48,1	66,6

O'zbekiston jahonning 160 dan ortiq mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (27,5 %), Rossiya Federatsiyasi (18,3 %), Qozog'iston (7,2 %), Turkiya (3,6 %) va Koreya Respublikasi (2,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 59,1 % ni tashkil etib, jumladan, sanoat tovarlari (18,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,9 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,6 %) va har xil tayyor mahsulotlar hissasi yuqori (8,5 %) bo'ldi.

* Xitoy maxsus ma'muriy hududi

II. Eksport ko'rsatkichlari

yanvar-fevral


Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami eksport	4 627,9	3 546,8	127,3	76,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	294,0	350,7	124,2	119,3	6,4	9,9
Ichimliklar va tamaki	24,5	34,7	165,2	141,3	0,5	1,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	49,0	58,1	91,9	118,7	1,1	1,6
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	148,7	124,4	135,2	83,6	3,2	3,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	11,7	18,7	2,9 b.	160,5	0,3	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	275,0	341,8	110,8	124,3	5,9	9,6
Sanoat tovarlari	575,4	643,2	94,3	111,8	12,4	18,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	116,2	210,7	92,1	181,3	2,5	5,9
Turli xil tayyor buyumlar	180,3	303,2	99,9	168,2	3,9	8,5
Boshqa tovarlar	1 795,1	12,2	135,7	0,7	38,8	0,3
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>1730,5</i>	<i>0,0</i>	<i>131,3</i>	<i>0,0</i>	<i>37,4</i>	<i>0,0</i>
Xizmatlar	1 158,1	1 449,1	158,9	125,1	25,0	40,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi

2026-yil yanvar-fevral, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-fevral oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlar Rossiya (19,2 %), Xitoy (10,8 %), Afg'oniston (8,2 %), Fransiya (6,0 %), Qozog'iston (4,5 %), Turkiya (4,3 %), Qirg'iz Respublikasi (2,9 %), BAA (2,8 %) va Tojikiston (2,7 %) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 60,0 % dan ortiqni tashkil etdi.

XSST bo'yicha eksport tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-fevral

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	350,7	119,3
05	Sabzavotlar va mevalar	216,4	116,5
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	96,6	119,9
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	9,1	98,9
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	7,7	193,0
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6,4	138,1
00	Tirik hayvonlar	5,1	7,3 b.
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,8	132,1
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3,0	2,4 b.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	1,7	36,0
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,0	3,2 b.
1	Ichimliklar va tamaki	34,7	141,3
11	Ichimliklar	22,8	2,2 b.
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	11,9	84,3
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	58,1	118,7
28	Metall rudalari va metall parchalari	23,1	2,5 b.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	12,3	76,6
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	8,7	82,0
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	6,5	145,5
25	Qog'oz massasi va makulatura	3,8	89,8
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	3,0	81,0
24	Probka va yog'och-taxtalar	0,3	127,9
23	Tabiiy kauchuk	0,3	106,8
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,0	0,0
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	124,4	83,6
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	81,8	113,6
35	Elektr toki	34,7	101,2
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	7,1	16,8
32	Ko'mir, koks va briketlar	0,8	198,9
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	18,7	160,5
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	18,6	159,6
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	130,1 b.
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	341,8	124,3
52	Noorganik kimyo moddalari	222,6	144,2
56	O'g'itlar	52,4	94,0
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	32,6	87,2
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	8,8	141,0
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6,3	72,3

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	5,8	157,5
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	5,4	174,0
51	Organik kimyo moddalari	4,3	104,7
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	3,6	2,2 b.
6	Sanoat tovarlari	643,2	111,8
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	266,7	101,8
68	Rangli metallar	227,9	101,7
67	Cho'yan va po'lat	44,8	4,9 b.
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	44,2	162,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	38,1	132,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	8,0	114,7
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	5,5	132,1
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	5,1	103,2
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,9	36,2
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	210,7	181,3
79	Boshqa transport uskunolari	56,8	16,4 b.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	42,1	8,7 b.
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	37,6	111,4
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	28,5	118,2
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	18,6	5,0 b.
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	17,8	48,1
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	14,0	41,2
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8,2	100,9
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,9	4,6 b.
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,2	20,5
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	303,1	168,2
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	189,5	135,9
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	100,9	3,1 b.
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	6,2	3,0 b.
85	Poyabzal	2,0	154,6
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2,0	88,7
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,5	154,4
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1,0	89,8
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	0,0	12,8
9	Boshqa tovarlar	12,2	0,7
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	12,2	2,4 b.
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	0,0	0,0


2026-yil yanvar-fevral oylarida 219,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,0 % yoki 27,1 ming tonnaga oshdi.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar-fevral

	2025-yil		2026-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	192,9	175,1	219,9	207,3
mevalar va rezavorlar	36,2	39,9	56,5	68,7
quritilgan uzum	16,0	20,6	21,4	24,5
quritilgan olxo'ri	7,1	9,3	6,7	12,1
quritilgan o'rik	2,4	3,3	4,7	11,3
anor	-	-	6,5	9,9
uzum	8,1	5,5	14,0	9,2
xurmo	2,5	1,3	3,2	1,6
sabzavotlar	90,2	28,3	87,9	34,3
karam	23,5	8,3	39,4	17,3
piyoz	46,4	10,1	27,2	6,4
pomidor	4,0	4,7	4,1	4,4
sabzi	12,7	2,2	14,0	2,5
qalampir	2,4	1,8	1,8	2,4
bodring	1,2	1,2	1,4	1,3
tarvuz va qovun	0,3	0,1	0,2	0,0
veryong'oq va yong'oqlar	5,3	12,3	5,0	11,3
mosh	11,1	9,3	11,8	11,2
boshqa	49,7	85,1	58,5	81,6


2026-yil yanvar-fevral oylarida 207,3 mln AQSH dollariga teng meva va sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga o'sdi va jami eksportdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yil yanvar-fevral oylari yakuni bo'yicha 466,6 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 13,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (52,2 %), ip kalava (30,3 %) asosiy ulushni egallagan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar eksporti hajmi 1 449,1 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 40,9 % ini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 25,1 % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (45,7 %), transport (36,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (10,8 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (2,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. Import ko'rsatkichlari

Ushbu davrga kelib import hajmi 8 058,3 mln AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 29,8 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (36,1 %), sanoat tovarlari (14,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1 701,3 mln AQSH dollariga ko'paydi va 7 214,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 844,0 mln AQSH dollariga yetdi.


O'zbekiston Respublikasining importi tarkibi
yanvar-fevral

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	6 209,8	8 058,3	99,6	129,8	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	645,9	903,9	120,8	139,9	10,4	11,2
Ichimliklar va tamaki	30,6	44,8	93,2	146,3	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	139,1	175,0	132,6	125,8	2,2	2,2
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	415,9	670,8	82,1	161,3	6,7	8,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	76,4	92,7	156,7	121,2	1,2	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	782,5	955,5	105,9	122,1	12,6	11,9
Sanoat tovarlari	989,2	1 148,7	87,5	116,1	15,9	14,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2 157,7	2 906,1	88,5	134,7	34,7	36,1
Turli xil tayyor buyumlar	215,8	305,1	96,8	141,5	3,5	3,8
Boshqa tovarlar	59,9	11,7	2,5 b.	19,5	1,0	0,1
Xizmatlar	696,8	844,0	153,3	121,1	11,2	10,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2026-yil yanvar-fevral, mln AQSH dollari



2026-yil yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasi 135 dan ortiq davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar, jumladan, Xitoy (34,9 %), Rossiya (17,9 %), Qozog'iston (8,4 %), Koreya Respublikasi (3,8 %), Turkiya (3,2 %), Germaniya (2,3 %) va Hindiston (2,2 %) jami importning 70,0 % dan ortig'ini tashkil etdi.


XSST bo'yicha import tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-fevral

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	903,9	139,9
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	264,6	174,0
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	156,6	175,7
05	Sabzavotlar va mevalar	122,1	133,3
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	104,8	105,8
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	75,7	104,7
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	51,7	131,1
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	50,9	158,2
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	43,2	114,5
00	Tirik hayvonlar	24,2	94,8
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	10,0	146,8
1	Ichimliklar va tamaki	44,8	146,3
11	Ichimliklar	24,1	133,6
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	20,8	164,5
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	175,0	125,8
24	Probka va yog'och-taxtalar	64,3	100,4
28	Metall rudalari va metall parchalari	41,0	3,8 b.
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	16,4	124,6
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	15,8	124,8
25	Qog'oz massasi va makulatura	10,7	99,1
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	9,9	112,8
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	9,6	77,0
23	Tabiiy kauchuk	7,2	113,1
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,1	3,3 b.
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	670,8	161,3
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	404,5	139,5
334	<i>shu jumladan: benzin (avtomobillar uchun)</i>	341,1	141,1
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	202,2	4,1 b.
35	Elektr toki	32,1	73,9
32	Ko'mir, koks va briketlar	32,0	96,4
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	92,7	121,2
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	84,1	131,8
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	8,2	65,8
41	Hayvonlarning yog'lari	0,4	199,1
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	955,5	122,1
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	329,6	106,7
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	172,5	122,4
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	115,7	123,0
51	Organik kimyo moddalari	105,0	182,3
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	97,7	145,9

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
52	Noorganik kimyo moddalari	61,1	140,9
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	42,1	101,0
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	18,5	106,3
56	O'g'itlar	13,4	115,9
6	Sanoat tovarlari	1 148,7	116,1
67	Cho'yan va po'lat	519,8	111,7
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	160,8	122,5
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	100,3	113,3
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	85,6	149,9
62	Rezina buyumlari	77,3	95,7
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	75,4	118,8
68	Rangli metallar	70,1	141,0
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	59,0	112,4
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	52,1
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2 906,1	134,7
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	607,3	132,5
781	<i>shu jumladan: asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	256,3	3,4 b.
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	266,9	105,6
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	579,9	175,8
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	412,1	87,6
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	400,3	103,6
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	327,2	196,1
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	253,9	160,5
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	173,3	2,8 b.
79	Boshqa transport uskunolari	124,4	135,7
	<i>shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)</i>	45,0	56,8
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	27,6	80,2
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	305,3	141,5
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	108,1	166,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	86,2	130,9
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	44,8	178,7
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	29,6	100,1
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	22,1	122,6
85	Poyabzal	7,0	114,7
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	3,8	129,1
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	3,6	115,3
9	Boshqa tovarlar	11,7	19,5
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	11,7	19,5

2026-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 844,0 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 10,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,1 % ga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi
2026-yil yanvar-fevral, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulush safarlar (53,5 %), transport xizmatlari (19,1 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (9,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

IV. Uslubiy ma'lumotlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash imkonini beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bunda, Bojxonaqo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan belgilangan turdagi tovarlar bo'yicha statistika kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar manbasi hisoblanadi. Xizmatlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda, jami sonlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.



V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga mas'ul:

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

Elektron pochta: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)

